

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari”
ilmiy-tadqiqot markazi**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.225:336.7(575.1)**

MAMEDOVA GUZALXON KOZIMOVNA

**TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYASI

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
professor F.I.Isayev**

Toshkent – 2026

M U N D A R I J A

	KIRISH.....	3
I BOB.	TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	12
1.1-§.	O‘zbekistonda moliyaviy institutlarni soliqqa tortishning me‘yoriy-huquqiy asoslari.....	12
1.2-§.	Tijorat banklarini soliqqa tortishning nazariy asoslari.....	26
1.3-§.	Tijorat banklarini soliqqa tortishning xorijiy tajribasi.....	38
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	51
II BOB.	TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI VA SOLIQLAR TA’SIRINI BAHOLASH.....	53
2.1-§.	Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning amaldagi holati tahlili.....	53
2.2-§.	Tijorat banklari faoliyatiga solinadigan boshqa soliqlar tahlili.....	67
2.3-§.	Tijorat banklari faoliyatiga foyda solig‘i ta’sirini baholash.....	75
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	83
III BOB.	TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....	85
3.1-§.	Tijorat banklari faoliyatini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari.....	85
3.2-§.	Tijorat banklari faoliyatini soliqlar vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari.....	102
3.3-§.	Tijorat banklari faoliyatiga moliyaviy soliqlarni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari.....	113
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	122
	XULOSA.....	125
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	129
	ILOVALAR.....	136

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo moliya tizimining murakkablashuvi, raqamlashtirish jarayoni va global moliyaviy integratsiya banklar faoliyati ko‘lamini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, soliq siyosatining dolzarbligi ortib, davlat budjetlariga barqaror va shaffof daromad keltirish masalasi o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Jahon bankining 2023-yilda e‘lon qilingan “Global Economic Prospects” hisobotida qayd etilishicha, “2022-yilda banklardan tushgan global soliq tushumi 5% ga oshgani kuzatilgan”¹. Shuningdek, XVJ ma‘lumotlariga ko‘ra, “samarali bank soliq siyosati inklyuziv iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi”². Demak, samarali soliq mexanizmi bank sektorida barqarorlikni ta‘minlashga, moliyaviy shaffoflikni oshirishga va iqtisodiy adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, tijorat banklarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish bugungi kunda global miqyosda dolzarb mavzu bo‘lib, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va davlat budjetining samarali shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda xalqaro amaliyotda tijorat banklarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalasi juda dolzarb hisoblanadi. Xususan, tadqiqotchilar banklarning murakkab moliyaviy faoliyatini hisobga olgan holda, soliq imtiyozlari va chegirmalarni optimal darajada belgilash, shuningdek, soliq bazasini kengaytirish, banklar tomonidan soliqlardan qochish va agressiv soliq rejalashtirish usullarini aniqlash, ularning iqtisodiy ta‘sirini baholash hamda ushbu jarayonlarni aniqlash va oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli tizimlar orqali moliyaviy shaffoflikni oshirish va soliq nazoratini kuchaytirish, davlatlararo axborot almashinuvi va soliq nazorati tizimlarining samaradorligini oshirish, bank sektoriga soliq siyosatining ta‘siri, bu siyosatning davlat budjeti va iqtisodiy barqarorlikka ta‘siri kabi masalalar o‘rganilmoqda.

O‘zbekistonda tijorat banklarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va moliyaviy bo‘shliqni

¹ World Bank. “Global Economic Prospects.” 2023, p. 45.

² IMF. “Fiscal Monitor: Taxing Times.” October 2022, p. 12.

qisqartirishda muhim. Bu orqali bank tizimi barqarorligi oshadi va mos ravishda investitsiyaviy jozibadorlik yuqorilab, taraqqiyotga xizmat qiladi. Mamlakatda banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyati oshib borib, jumladan “Banklar o‘z ishini yangicha tashkil qilib, faqat kredit ajratadigan markaz emas, balki o‘zi istiqbolli loyihalarni amalga oshiradigan va ularni tayyor biznes sifatida tadbirkorlarga taqdim etadigan zamonaviy investitsiya-tijorat tuzilmasiga aylanishi maqsadga muvofiqligi qayd etildi”³. Mazkur o‘zgarishlar albatta, real sektor rivojlanishi rag‘batlantirilib, investitsiya muhiti yaxshilanadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi, iqtisodiy o‘sish ta’minlanadi. Ushbu belgilangan vazifalarning samarali amalga oshirilishi ko‘p jihatdan bu boradagi muammo va to‘siqlarning ilmiy yechimini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “«O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida», 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son “Ma’muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va ushbu sohadagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda

³ Sh.Mirziyoyev 2024-yil 29-may kuni “Asakabank” va Biznesni rivojlantirish bankining investitsiya faoliyati hamda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashga oid taqdimoti bilan tanishuvi. -Banklarning investitsiyalar va biznesni qo‘llab-quvvatlash borasidagi faoliyati ko‘rib chiqildi (29.05.2024). <https://president.uz/uz/lists/view/7268>